

PSIXOLOGIYADA OLIMLARNING YOSHLARNI KASBGA YO'NALTIRISH HAQIDAGI QARASHLARI

Ko'bayeva Fazilat Yaxyayevna

*Samarqand viloyati Payariq tumani Maktabgacha
va maktab ta'lim bòlimiga qarashli 86-maktab psixologi*

Isoqulova Charos Shokirboyevna

*Samarqand viloyati Payariq tumani Maktabgacha
va maktab ta'lim bòlimiga qarashli 5-maktab psixologi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada psixologiya fanida olimlarning yoshlarni kasbga yo'naltirish haqidagi ilmiy qarashlari, kasb tanlash jarayonining psixologik asoslari hamda shaxs qobiliyat va qiziqishlarining kasbiy rivojlanishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, turli psixologik nazariyalar asosida kasb tanlashning bosqichlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kasbga yo'naltirish, kasb tanlash, qobiliyat, qiziqish, shaxs, motivatsiya, psixologik nazariya, professional rivojlanish, yoshlar psixologiyasi, mehnat tarbiyasi.

KIRISH

Kasbga yo'naltirish masalasi psixologiya fanida uzoq yillardan beri o'rganilib kelinayotgan muhim yo'nalishlardan biridir. Olimlar yoshlarning kasb tanlash jarayonini shaxs rivojlanishining ajralmas qismi sifatida ko'rib, bu jarayonni turli psixologik yondashuvlar asosida tahlil qilganlar. Kasb tanlash insonning qiziqishlari, qobiliyatlari, temperamenti va ijtimoiy muhitiga bog'liq murakkab psixologik jarayon hisoblanadi.

Psixolog olimlar orasida John Holland kasb tanlash nazariyasi bilan mashhur bo'lib, u shaxs tiplarini kasbiy muhit turlari bilan bog'lagan. Uning fikricha, inson o'z shaxs tipiga mos keladigan kasbni tanlasa, u yuqori muvaffaqiyatga erishadi va ishidan qoniqish hosil qiladi. Holland nazariyasi kasbga yo'naltirishda amaliy ahamiyatga ega bo'lib, maktab psixologiyasida keng qo'llaniladi.

Yana bir mashhur olim Donald Super kasbiy rivojlanishni hayot davomida kechadigan jarayon sifatida talqin qiladi. Uning "hayot yo'li nazariyasi"ga ko'ra, inson kasb tanlashni bir martalik qaror sifatida emas, balki bosqichma-bosqich rivojlanadigan jarayon sifatida amalga oshiradi. Bu yondashuv yoshlarni kasbga yo'naltirishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi.

Psixolog Lev Vygotskyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasi ham kasb tanlashga bilvosita ta'sir qiladi. Unga ko'ra, bola rivojlanishi ijtimoiy muhit va muloqot orqali

shakllanadi. Shu sababli kasb tanlash jarayonida oila, maktab va jamiyatning ta'siri juda muhim hisoblanadi.

Sergey Rubinstein esa shaxs faoliyati va ong birligi tamoyilini ilgari surib, kasb tanlashda shaxsning ichki motivatsiyasi va faoliyatga bo'lgan munosabati asosiy rol o'ynashini ta'kidlaydi. Uning fikricha, inson o'z faoliyatini anglab tanlasa, u kasbiy jihatdan barqaror rivojlanadi.

Olimlarning qarashlariga ko'ra, kasbga yo'naltirish jarayonida quyidagi psixologik omillar muhimdir: qiziqish, qobiliyat, temperament, motivatsiya va shaxsning o'zini anglash darajasi. Ushbu omillar to'g'ri aniqlansa, o'quvchining kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati ta'minlanadi.

Zamonaviy psixologiyada kasbga yo'naltirishda diagnostik testlar, suhbatlar va kuzatuv metodlari keng qo'llaniladi. Maktab psixologlari o'quvchilarning individual xususiyatlarini o'rganib, ularga mos kasbiy tavsiyalar beradi. Bu jarayonda ota-onalar va o'qituvchilar ham muhim rol o'ynaydi.

Bolalarning kelajakda qanday inson bo'lishlari va qaysi kasbni egallashlari aynan maktab yosh davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Bizning maqsadimiz ham yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shadigan barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazishdan iboratdir. Shu sababdan, maktab yosh davridan bolalarni kasb tanlashga qiziqishni shakllantirish muhim hisoblanadi. Bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularni kelajakda turli kasblarni tanlashga qiziqishlarini shakllantirish lozim. Yosh avlodni mehnatsevarlikka, kasb-hunarga o'rgatish масаласи sharq mutafakkirlari, olimlari o'z asarlarida, qarashlarida o'z ifodasini topgan.

Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Farobiy kasb-hunar to'g'risida ilk fikrlarini bildirib, ta'lim – so'z va ko'nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish - harakat ekanligini, muayyan kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bo'lishini aytgan. Bu mulohazalardan anglashilib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo'lib kelgan.

Forobiyning fikricha, insonning kasb-hunar va san'atdagi fazilatiga kelsak, bu fazilat tug'ma emasdir, aks holda uning fikru-fazilatida mutlaqo kuch va ulug'lik bo'lmas edi. Agar kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganda podshohlar ham o'zlari ishlab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo'lgan, tabiat talab qilgan tabiiy majburiy bo'lib qolar edi. Nazariy va buyuk fikriy fazilat ulug' tug'ma fazilat va ulug' (kasb-hunar) fazilati odat – malaka bo'lib qolgan odamda bu fazilatlar irodani hosil qilishning va odatga aylantirishning sababi bo'ladi, bunday odamlar cheksiz, juda kuchli tabiat va irodaga egadirlar.

Agar insonda mana shunday go'zal xususiyatlar yoki fazilatlar birlashsa, uyg'unlashsa, shundan so'ng u o'zidagidek go'zal fazilat va irodani xalqlar va shahar ahillarida hosil qilish yo'llarini o'rganishi kerak. Buyuk qomusiy olim sifatida barcha hodisalarning mohiyatini ilmiy jihatdan ochib berishga harakat qilgan sharq

mutafakkirlaridan biri - Abu Ali Ibn Sinodir. Uning pedagogikpsixologik qarashlari ilmiy asosda qurilgan bo'lib, bolaning fe'l-atvori va tasavvurlarini shakllantirishda umuminsoniy g'oyalar qo'llanishini yaratgan hamda murabbiy, ota-onalarga uni qattiq tanjazosidan ko'ra, shaxsiy ibrat orqali voyaga etkazish ma'qulligini ko'rsatgan.

Mutafakkirning «Donishnoma», «Risolai ishq», «Uy xo'jaligi», «Tib qonunlari» asarlari mamlakatimiz xalqlari odob-axloq psixologiyasi va tabobat olamida alohida o'rin tutadi. Mutafakkirning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o'rgatmoq shart, deydi.

Ibn Sino har bir insonning mijozidan kelib chiqqan holda unga alohida e'tibor berish kerakligini ta'kidlashi tufayli juda katta amaliy ish qilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Uning fikricha, har bir inson faqat unga tegishli bo'lgan xususiyatlargagina egadir, unga o'xshagan insonlar kamdan-kam bo'ladi. Abu Ali ibn Sinoning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o'rgatmoq shart, deydi. Yosh yigit biror hunarni o'rgansa, uni hayotga tatbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta'minlaydigan bo'lsagina otasi uni uylantirib qo'ymog'i lozim, deb hisoblaydi. O'spirin hunar egallashi bilan unda nafaqat axloqiy hislar, balki xarakterning irodaviy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Hunar egallash orqali o'spirinlardan sabr-bardoshlik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi.

XII asrning buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Hojib o'zining «Qutadg'u bilig» asarida inson va uning hayotiga oid qarashlarini tahlil qilgan. U odamning Alloh tomonidan yaratilganligini hamda odamning dunyoga kelishi va uning kelajakda qanday odam bo'lib voyaga etishi ajdodi va kelib chiqishiga, hayotda shug'ullanayotgan faoliyatiga, atrofga nisbatan munosabatlariga bog'liqligini aytib: «Kimning nasli otadan boshlab toza bo'lsa, undan elga yaxshilik, ko'p manfaatlar keladi» deb hisoblaydi.

Abu Rayhon Beruniy ham mamlakatning obodonchiligi, kishilarning baxt-saodati va kamolati uning halol mehnat qilishida va kasb-hunar o'rganishida deb biladi. U kasb-hunar, ixtirolashga, turli asboblarni yasashga bag'ishlab 9 ta asar yozgan. Asarlarida o'zi yashab turgan davrdagi ishlab chiqarishning rivoji va kasb-hunarga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy o'z zamonasida zargarlar, kulollar, tikuvchilar kabi turli tuman hunar sohiblarining hammasiga zo'r hafsala, qunt, ehtibor bilan maslahatlar berib, rag'bat ko'rsatib, hamda ularga homiylik qilganlar hamda o'z asarlarida yosh avlodni kasb-hunarga o'rgatish borasida ham o'z fikrlarini bayon etganlar. Alisher Navoiyning fikricha "Inson bo'lib dunyoga keldingmi? Biron-bir kasbni egalla, hunar o'rgan, shunda dunyodan hammomga kirib toza yuvilib chiqmagan kishidek o'tmaysan"- deydi.

Kaykovusning “Qobusnoma” asarida shunday deyiladi: “Farzandlarga odob-hunar o’rgatmak merosdur. Sen odob, hunar va donishini o’zingdan meros qilgin, toki uning haqqini bajo kelturmish bo’lgaysan. Chunki xos kishilarning farzandiga odob va hunardan yaxshiroq meros yo’qdir. Oliy xaloyiqning farzandlariga xirfa (savdo hunari) pisha (kasb) din yaxshiroq meros yo’qdir. Agar xos odamlarning farzandlari yuz hunar bilsa va lekin hech kasbni bilmasa ayb emasdur. Hunar esa bir kun ishga yaragusidir. Demak albatta hunar o’rganmoq zarurdir”. Ushbu asar juda qimmatli asar bo’lib, unda kasb-hunar egallash zarurligi masalalari keltirib o’tilgan.

O’zining ta’lim-tarbiya, ahloq nafosatga doir fikr mulohazalari bilan XIX asrda shuhrat qozongan Ahmad Donish o’qituvchilik kasbi haqida bir qancha fikr mulohazalarni bildiradi.

Ahmad Donish kasb tanlash, kasb yo’naltirish kasb egalari xususidagi fikrlarini ko’zdan kechirar ekanmiz, uning o’qituvchilik kasbi xususidagi qarashlarida axloq masalasiga katta e’tibor berganligini ko’ramiz. U o’qituvchini talabalarga kuchli ta’sir etuvchi deb biladi. Uning ta’kidlashicha, o’qituvchilik kasbini tanlaganlarning nopoklik niyatida bo’lishi g’oyatda zararlidir, chunki ular o’zlaridagi axloqiy buzuvchilikni yosh avlod o’rtasida tarqatadilar. Demak, Ahmad Donish o’qituvchining axloqiy qiyofasiga katta e’tibor beradi. U o’qituvchidan yosh avlod manfaatini birinchi o’ringa qo’yishni talab qiladi. O’qituvchi o’quvchi va talabalarga ko’p bilim berish o’z bilimni oshirish va chuqurlashtirish uchun o’z ustilarida ko’p ishlashlari lozimligini aytadi. Bundan ko’rinadiki, Ahmad Donish o’qituvchi kasbiga nisbatan jiddiy talab qo’yadi. U go’zal axloqlilik va chuqur bilimdonlikni o’qituvchining go’zal sifati deb biladi.

XX asrning etuk ma’rifatparvari Abdulla Avloniyning 1913-yilda yozilgan “Turkiy Guliston yohud axloq” asarida bola tarbiyasi, uning ijtimoiy ahamiyati falsafiy-pedagogik jihatdan tushuntirib berilgan. Olim ta’lim va tarbiya jarayonida oila va jamoatchilikning o’rni ularning o’zaro hamkorligini ulug’laydi. Uning talqiniga qaraganda, barkamol shaxsning ko’p qirrali bilimlarga ega bo’lishi, yaxshi bir kasb-korning sirlarini egallashi ko’p jihatdan ijtimoiy muhit bilan oilaviy sharoitning uyg’unligiga bog’liqligini ta’kidlaydi.

Ma’lumki, so’nggi yillarda kasbga yo’naltirishning ma’rifiy jihatlarini tashxislash va maslahat berish yo’nalishida axborot tizimi uchun kasbga yo’naltirish jarayonlarini boshqarish algoritmini ishlab chiqish (M.Yu.Makarova) muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu muammo bizning tadqiqot ishimizga ham aloqador bo’lib, bizningcha, maktab ta’limi bosqichida o’yinlar vositasida tarbiyalanuvchilarda yangi kasblar haqida boshlang’ich tasavvurlarni hosil qilish zarur. Chunki yangi kasblarning paydo bo’lishi va ba’zi bir kasblarning yo’qolib ketishi tarbiyalanuvchilarning kasb tanlashga bo’lgan ehtiyojlariga ta’sir qiladi.

Ta'lim jarayonida tarbiyalanuvchilarni kasbga yo'naltirish tushunchasi "Kasb-hunar", "Mehnat tarbiyasi", "Kasbga yo'naltirish", "Kasbiy axborot", "Erta kasbga yo'naltirish", "Politeknika ta'lim", "Kasb-hunar bilan tanishtirish" kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

"Kasb-hunar" tushunchasi mohiyatini aniqlashda O.Abduqudusovning kasb-hunarning paydo bo'lishi haqidagi ushbu fikrlari e'tiborga loyiqdir: "... kasb-hunarning paydo bo'lishi tarixan insonlar faoliyatini turli sohalarga bo'linishiga borib taqaladi. Hazrati inson oliy ne'mat ong, his, tuyg'u, aql-idrok, til va tafakkur, mehnat qilish zaruriyatini bilgan davrdanoq yanada farovon yashash va jamiyat taraqqiyotini ta'minlash uchun turli sohalarda faoliyat ko'rsata boshlagan". R.Jo'raev, O'.Tolipov va Sh.Sharipovlar kasb-hunarning "mehnat mazmuniga ega bo'lishi"ni o'ta muhim deb biladilar. Bolalarni kasbga yo'naltirishda ularning "qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini muntazam ravishda o'rganish zarur" ekanligini uqtiradilar.

E.Ginsbergning fikricha, kasb tanlash jarayoni bolaning hissiy va intellektual rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bir-biriga o'tadigan uch bosqichdan iborat: xayoliy davr (4-11 yosh), sinovlar va urinishlar davri. (11-17 yosh), real davr (17-21 yosh).

Kasb tanlashni "psixologik jihatdan asoslash" urinishlari bilan bir qatorda, faqat sub'ektiv omillarni tan olgan holda, G'arb psixologiyasida boshqa tushunchalar ishlab chiqilmoqda, ular kasb tanlashga ob'ektiv omillarning ta'sirini hisobga oladi, ammo sub'ektiv omillar hal qiluvchi bo'lib qolmoqda. Bular «texnokratik» deb ataladigan nazariyalar bo'lib, ular «inson munosabatlari» ta'limotiga asoslanadi, mahalliy iqtisodiyotning holati va tuzilishi va mehnat bozori (M.Musgrave, E.Gross, D.Xeys va boshqalar).

D.Super shaxs hayotining davrlari, bosqichlari rivojlanishini qisman qobiliyat va qiziqishlarning shakllanish jarayonini osonlashtirish, qisman unga voqelikni tushunish va o'zining "men" tushunchasini rivojlantirishga yordam berish orqali boshqarish mumkin deb hisoblaydi. Kasbiy intilishlarning shakllanishi, mohiyatiga ko'ra, ushbu kontseptsiyani ishlab chiqish va o'rnatish jarayonidir.

Kasb-hunarga yo'naltirishning tizimli-nazariy modeli o'z kasbini tanlagan shaxsning psixologik kasbiy jihatdan etuk emasligiga asoslanadi.

Kasbiy o'zini o'zi belgilashning mohiyatini aniqlash hali ham hal qilinmagan muammo hisoblanadi, shuning uchun ushbu muammoni hal qilish fanning turli sohalari vakillarini ijodiy izlashda muhim o'rin tutadi. Mahalliy pedagogika va psixologiyada mustahkam ilmiy asos yaratilgan bo'lib, u asosan ushbu muammoga zamonaviy yondashuvlarni belgilab berdi. Bu erda V.V.Nazimov, A.E.Golomshtok, E.A.Klimov, B.A.Fedorshin, L.A.Yovaishi tadqiqotlarini qayd etishimiz mumkin. va boshqalar. Ushbu tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyati kasbiy o'zini o'zi belgilashning shaxsiy jihatlariga e'tiborning kuchayishidir. "Kasbiy o'zini o'zi belgilash" kontseptsiyasini

aniqlashga yondashuvlarni ishlab chiqishga va mehnat sub'ekti sifatida shaxsning kasbiy ontogenezini tavsiflashga eng katta hissa E.A.Klimov tomonidan qo'shildi.

Hozirgi vaqtda eng yaxshi ma'lum bo'lgan - bu E.A.Klimov tomonidan taklif qilingan inson rivojlanishining mehnat sub'ekti sifatida davriyligi. Ushbu nazariyaga ko'ra, 3 yoshdan 6-8 yoshgacha bo'lgan o'yin inson faoliyatining "asosiy ma'nolari" ni o'zlashtirish, shuningdek, muayyan kasblar bilan birinchi tanishish (haydovchi, shifokor, sotuvchi, o'qituvchi va boshqalar)

Maktab yoshidagi bolalarni kattalar bilan tanishtirish va unga munosabatni rivojlantirishning umumiy muammosi, shu jumladan. va kattalar ishiga, deyarli qirq yil davomida (40-80-yillar) ko'plab olimlar (I.D.Vlasova, G.I.Grigorenko, G.I.Jukovskaya, V.V.Kondratova, F.S.Levin-Shchirina, V.I.Loginova, V.G.Nechaeva, A.) tadqiqot mavzusi bo'ldi. Sh.Shaxmanova).

Bolada kasbga qiziqish o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bolada biron bir kasbga qiziqish quyidagi sabablar tufayli paydo bo'ladi:- oiladagi muhit; biror bir faoliyatga nisbatan qobiliyatning mavjudligi; ta'lim-tarbiya jarayonida kasbga yo'naltirish orqali. Maktab yoshdagi bolalarni kasblar bilan tanishtirish aniq maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Maktab yoshdagi bolalarga kattalarni kasblar bilan tanishtirishning asosiy maqsadi: - kasblar haqida aniq bilim va tushunchalar berish; kasblarga nisbatan qiziqish va xohishni uyg'otish; barcha kasblar muhimligini va uning jamiyat hayotida ahamiyatini bola ongiga singdirish; kattalar mehnatini qadrlash va hurmat qilishni tarbiyalash. Mehnat tarbiyasi umuman tarbiyaning asosini, tarbiyalanuvchilar faoliyatining mazmunini tashkil qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, psixolog olimlarning kasbga yo'naltirish haqidagi qarashlari yoshlarning to'g'ri kasb tanlashida muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shaxsning qobiliyati, qiziqishi va ijtimoiy muhitini hisobga olish kasbiy muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziev E. – Umumiy psixologiya. Toshkent.
2. Karimova V.M. – Psixologiya (o'quv qo'llanma). Toshkent.
3. Davletshin M.G. – Yosh va pedagogik psixologiya. Toshkent.
4. Holland J. – Career Choice Theory.
5. Super D. – Life-Span, Life-Space Theory.
6. Vygotsky L.S. – Ijtimoiy rivojlanish nazariyasi.
7. Rubinstein S.L. – Umumiy psixologiya asoslari.
8. Abu Ali ibn Sino. Men anglagan dunyo. – T.: S'harq, 2012. – 272 b. - 86-b.
9. Alisher Navoiy. Hikmatlar.- T.: S'harq nas'hriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bos'h tahririyati, 2006 y.- 223 b. – 168-b.